

MEHNAT MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA YEVROPA MAMLAKATLARI TAJRIBASI

Xolmirzaeva Jumagul Xamdammovna

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21272488>

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mehnat madaniyatini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda mehnat madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar, jumladan, treninglar, mentorlik va kouching tizimlari, raqamli ta'lim platformalari, simulyatsiya usullari hamda kasbiy sertifikatlashtirish mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, Yevropa davlatlarida mehnat madaniyatini shakllantirish borasida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar o'rganilib, ularni milliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari asoslangan. Maqola xulosalari yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda mehnat madaniyatining o'рни beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mehnat madaniyati, innovatsion yondashuv, raqamlashuv, Yevropa tajribasi, yoshlar, ta'lim, mentorlik, trening, kasbiy rivojlanish, motivatsiya, barqaror taraqqiyot.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotida kechayotgan globallashuv va raqamlashuv jarayonlari mehnat madaniyatiga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. An'anaviy mehnat ko'nikmalari bilan bir qatorda raqamli savodxonlik, ijodkorlik, jamoaviy ishlash, o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanlik kabi kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mehnat madaniyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va Yevropa davlatlarida to'plangan ilg'or tajribalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlarida dual ta'lim, umrbod ta'lim konsepsiyasi, mentorlik va kouching dasturlari hamda raqamli ta'lim platformalari orqali inson kapitalini rivojlantirish tizimli yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizmlar xodimlarda mehnatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish va mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yevropa tajribasini milliy shart-sharoitlarga mos holda tatbiq etish Yangi O'zbekistonda mehnat madaniyatini yuksaltirish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga zamin yaratadi.

METODLAR

Maqolada qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, Yevropa tajribasini umumlashtirish va ularni milliy shart-sharoitlar bilan taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat madaniyatini rivojlantirish innovatsion usullarni kompleks ravishda qo'llashni talab etadi. Zero "Bizning barcha sa'y-harakatlarimiz komil insonni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Yangi asrda dunyo taraqqiyotini, insoniyatning qay yo'ldan borishini komil insonlar belgilashiga shubha yo'q. Chunki, XXI asr - intellektual avlod

asri bo'lad¹». Mehnat jarayonlarini samarali tashkil etish, ishchilarning ma'naviy va kasbiy salohiyatini oshirish hamda qulay mehnat muhitini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tadqiqot davomida mehnat madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi innovatsion usullar tavsiya etiladi: - kasbiy treninglar va seminarlar; - mentorlik dasturlari; - ishlab chiqarish simulyatsiyalari; - raqamli platformalar va onlayn ta'lim; - kasbiy sertifikatlashtirish va akkreditatsiya; - ma'naviy-axloqiy ta'lim; - mehnat mahsuldorligini oshirish texnologiyalari; - ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyat. Bulardan tashqari "yoshlarda ijtimoiy-innovatsion faollikni oshirishdagi yana bir muhim omil - ular yaratgan yangilik va ixtirolarni nafaqat rag'batlantirish, balki amaliyotga tatbiq qilish"² ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur usullar yoshlarning mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda mas'uliyat, ijodkorlik va raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli ta'lim resurslari va simulyatsiya dasturlari orqali yoshlar amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'lad³.

MUNOZARALAR

Yoshlarning mehnat madaniyatini oshirishda innovatsion ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega. Interaktiv loyihalar, jamoaviy ishlar, mentorlik munosabatlari yoshlarda jamoada ishlash, qaror qabul qilish va loyiha boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish esa mehnat madaniyatini oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lad⁴. "Hozirgi zamonda yashayotgan yoshlarning ongiga Vatanni sevis, umuminsoniy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish; mehr-shafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash"³da mehnat madaniyatni qay darajada shakllanganligi muhim rol o'ynaydi. Simpoziumlar, konferensiyalar va kasbiy forumlar yosh mutaxassislar uchun motivatsiya manbai bo'lib, ularning bilim va tajriba almashishini ta'minlaydi. Shuningdek, sertifikatlashtirish tizimi yoshlarning kasbiy faolligini oshirish va mehnat madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, mehnat madaniyatini rivojlantirish ta'lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy hamkorlik uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Kasaba uyushmalari, ta'lim muassasalari va biznes sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlik mehnat kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, Yevropa mamlakatlarida mehnat madaniyatining axloqiy va ma'naviy jihatlariga ham katta e'tibor qaratiladi. Bular insonlarga motivatsiya beradi. Motivatsiya esa "xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni" bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi"⁴.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mehnat madaniyatini rivojlantirish globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹ Каримов И.А. Соғлом авлод халқимиз келажаги. // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Том 8. -Т.: Ўзбекистан, 2000. -437-438 б

² Отамуратов С. Ижтимоий соҳадаги инновацион жараёнларда ёшлар фаоллигини ошириши омиллари. // Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишнинг долзарб вазифалари мавзусидаги республика илмий конференция материаллари. Тошкент. 2019 йил 26 апрель. Б.15

³ Ғайбуллаев О. Ёшлар онгига истиклол ғоясини сингдиришнинг ижтимоий моҳияти ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 2005. – №12. – Б. 80.

⁴ Jumayeva G. Maktab o'qituvchilarining mehnat madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. № 3. B. 498

Innovatsion usullar – treninglar, mentorlik, raqamli ta’lim platformalari, simulyatsiya va sertifikatlashtirish tizimlari yoshlarning kasbiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa davlatlarining ilg’or tajribasini milliy shart-sharoitlarga moslashtirib joriy etish Yangi O’zbekistonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion faollikni oshirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. Sog'lom avlod xalqimiz kelajagi. // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Tom 8. -T.: Uzbekistan, 2000. -437-438 b
2. Otamuratov S. Ijtimoiy sohadagi innovatsion jarayonlarda yoshlar faolligini oshirishi omillari. // Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning dolzarb vazifalari mavzusidagi respublika ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent. 2019 yil 26 aprel. B.15
3. G'aybullaev O. Yoshlar ongiga istiqlool g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 2005. – №12. – B. 80.
4. Jumayeva G. Maktab o'qituvchilarining mehnat madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. № 3. V. 498
5. Erin Meyer - *The Culture Map: Breaking Through the Invisible Boundaries of Global Business*. – New York. PublicAffairs (Hachette) 2014. – P. 288